

HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYAT TUSHUNCHALARI, ULARNI AMALIYOTDA QO'LLASH

CONCEPTS OF LEGAL CONSCIOUSNESS AND LEGAL CULTURE,
THEIR APPLICATION IN PRACTICE
ПОНЯТИЯ ПРАВОСОЗНАНИЯ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ, ИХ
ПРИМЕНЕНИЕ НА ПРАКТИКЕ

Vahobov Shahbozbek Bobomurod o'g'li.

Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti II-bosqich talabasi.

@shahboz_vahobov. (90) 057-62-52.

Anotatsiya; Huquqiy ong bu davlatning har bir fuqarosi o'z mamlakatidagi nafaqat o'ziga aloqador balki huquq tarmog'iga tegishli bo'lgan jamiki qonun-qoidalarni bilishi va tushinishidir. Huquqiy madaniyat esa fuqaro ushbu qonun-qoidalarni tushungan holda unga nechog'lik amal qilishini ifodalaydi. Ushbu maqolada huquqiy ong va huquqiy madaniyat haqida batafsil ma'lumotlar hamda ularning nechog'lik zarurligi va ularni qo'llash haqida tushunchalar beriladi.

Kalit so'zlar; Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy oila, huquqiy nigilizm, fuqaro, jismoniy shaxs, yuridik shaxs, pozitiv huquq.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat davlatning ajralmas belgisidir zeroki bu elementlar yetarlicha bo'lmas ekan hech qanday demokratik davlat ham hech qanday huquqiy jamiyat ham mavjud bo'la olmaydi. Eng avvalo har bir tushunchani tahlil qilishdan oldin u o'zi nima ekanligi hamda qanday mazmun bildirishligini aytish joizdir. Huquqiy ong ijtimoiy ongning bir shakli hisoblanib, nisbatan mustaqildir. Huquqiy ong jamiyat a'zolarining huquqqa, qonunga munosabati hamda davlat mexanizmi faoliyati xususidagi tasavvurlari, qarashlari, ta'riflari, his-tuyg'u va kayfiyatlarining mujassam ifodasidir. ijtimoiy ong shakli; jamiyat a'zolarining mavjud huquqiy munosabatlar va huquqni tushunishi, huquq-tartibot haqidagi tasavvurida o'z aksini topadi va o'z natijalarini beradi. Huquqiy ong nafaqat amaldagi huquqni, balki uning tarixi, shuningdek boshqa jamiyatlardagi voqeliklarni, bundan tashqari hozirda qabul qilinayotgan qonun va qoidalarni ham bilishni o'z ichiga oladi. Huquqiy ongda alohida shaxs, guruh va jamiyatning huquqiy ongi ajratib ko'rsatiladi. Huquqiy ong ikkita huquqiy elementdan tashkil topgan, bular; huquqiy mafkura va huquqiy psixologiyadir. Huquqiy mafkura - har xil huquqiy hodisalar haqidagi nuqtai - nazar, tushuncha, g'oya va qarashlarning ilmiy umumlashtirilgan tizimidan iborat. Huquqiy ongning huquqiy mafkura qismida aksini topgan huquqiy hodisalar huquqqa bag'ishlangan maxsus nazariy izlanishlarda o'z rivojini topib, ilmiy darajada anglab yetiladi. Bunday ilmiy asarlarning mazmuni odamlar ma'naviy mulkiga aylanib,

ularning ongiga aniq huquqiy bilimlarni, mulohazalarni, e'tiqod va kayfiyatni olib kiradi. Huquqiy mafkura - shaxsning huquqiy ongini ilmiy asosda shakllantira borib, odamning huquqqa bo'lgan munosabatiga hal qiluvchi ta'sir qiladi. Huquqiy psixologiya esa huquqiy hodisalarni hissiyot bilan anglashdir. Odam ijtimoiy hodisalarni, jumladan, huquqiy munosabatlarni nafaqat aql bilan, balki sezgilari bilan ham tushunib yetishi mumkindir, aynash shu tarda insonlarning huquqiy bilimlarga ega bo'lishi aynan huquqiy psixologiya bilan bog'liqdir.

Huquqiy ong darajasi jamiyat a'zolarining huquqiy ma'lumotlariga ham bog'liqdir. Shunga ko'ra, fuqarolarning huquqiy madaniyat darajasini ko'tarishga ko'mak beradigan huquqiy axborot tizimini tashkil qilishning ahamiyati katta. Huquqiy ongning darajasiga qarab, u uch turga ajratiladi: oddiy, ilmiy va kasbiy. Oddiy huquqiy ong, odatda, o'z-o'zidan vujudga keladi va odamning shaxsiy tajribasi, huquqiy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan hayotiy vaziyatlar haqidagi tushunchasi bilan belgilanadi. Bunga odamning ishga joylashuvidagi yoki oliy o'quv yurtiga kirish qoidalari yo bo'lmasa yo'l qoidasini buzganligi uchun javobgarligi haqidagi bilimlari misol bo'la oladi. Huquqiy ong borliq haqidagi oddiy tushunchalar chegarasida qolib ketmaydi, doimo rivojlana borib, nazariy, ilmiy tushunchaga aylanadi. Ilmiy huquqiy ong ijtimoiy huquqiy haqiqatni u yo bu darajada to'g'ri aks ettiruvchi bilimlar tizimini o'z ichiga oladi shu bilan ham u kasbiy va oddiy huquqiy ongdan farq qiladi. Kasbiy huquqiy ong esa yuridik oliy o'quv yurtlarida o'qish natijasida shakllanadi, so'ngra, huquqiy amaliyot jarayonida sayqallanadi. Huquqiy fanlar vakillari, huquqshunoslar, yuridik amaliyotchilar kasbiy huquqiy ongning sub'yektlari hisoblanadi.

Huquqiy madaniyat fuqarolik jamiyati ma'naviy kamolotining, davlatchilikning huquqiy asosi, rivoji va huquqiy tizim yetukligining muhim ko'rsatgichidir. Huquqiy madaniyat deganda, jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasi, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasi, fuqarolarning qonunga hurmati, huquqiy normalarning ijro etilishi darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo'lish, qonunga itoatkorlik darajasi tushuniladi. Jamiyat huquqiy tizimida katta ahamiyatga ega bo'lgan, huquqning insonlar xatti-harakatida mujassamlashishi, huquqiy madaniyat hisoblanadi. Har bir demokratik davlatda huquqiy madaniyat tushunchasi eng zarur elementdir. Agar aholida huquqiy bilimlari yetarli bo'lmasa, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasa mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi va ularning huquqlari buzilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchungun ham hozirgi kunda huquqiy madaniyat va huquqiy ongni yetarli darajada shakllantirish asosiy vazifalardandir. Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va

ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada qabul qilib ularning yutuqlarini jamiyatga moslashtirish zarurdir.

Xulosa qilib ayganda aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimizning tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda konsitutsiyasi, davlat ramzlari va millati bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga va xalqiga nisbatan ishonch hissini yanada kuchaytirish; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasidagi o'zaro hamkorligini mustahkamlash orqali huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada rivojlantirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Odilqoriyev X. T. Davlat va huquq nazariyasi 2018-yil.
2. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2019. dagi 5618-sonli farmoni.
3. <https://lex.uz>.
4. O'zbekiston milliy endisiklopediyasi. 2005-yil.
5. <https://cbu.uz>.